




2021- yil yanvar-mart




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2021- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **61,2** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **14,2** birlikni tashkil qildi.
- 2021- yilning yanvar - martida **2,1** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **47,1** foizga ko'p.



2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo
38,1 %

Sanoat
29,6 %

Qurilish
8,1 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
5,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 804 ta, sanoatda 626 ta, qurilishda 171 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 114 ta, yashash va ovqatlanishda 79 ta, tashkil etilgan.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'Ichov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	30272	36927	6655
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1436	2113	677
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	59,5	61,2	1,7
Sanoat	%	36,4	38,0	1,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,3	94,5	-2,8
Investitsiya	%	69,7	78,2	8,5
Qurilish	%	95,1	93,0	-2,1
Chakana savdo	%	89,1	90,8	1,7
Xizmatlar	%	70,0	69,5	-0,5
Yuk tashish	%	94,2	94,0	-0,2
Yuk aylanmasi	%	94,3	78,8	-15,5
Yo'lovchi tashish	%	94,4	96,0	1,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,9	97,3	1,7
Eksport	%	52,8	36,7	-16,1
Import	%	71,0	80,9	9,9



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %da

**YaHM
61,2%**

**Savdo
90,8%**

**Sanoat
38,0%**

**Qurilish
93,0%**

**Investitsiya
78,2%**

**Export
36,7%**

**Xizmatlar
69,5%**


**Import
80,9%**

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	farqi (+;-)
Farg'ona viloyati	1 436	2 113	677
Farg'ona sh.	214	289	75
Qo'qon sh.	186	222	36
Quvasoy sh.	52	84	32
Marg'ilon sh.	143	184	41
<i>tumanlar</i>			
Oltiariq	71	128	57
Qo'shstepta	35	66	31
Bag'dod	63	92	29
Bivayda	56	88	32
Beshariq	47	71	24
Quva	79	104	25
Uchko'prik	76	136	60
Rishton	62	104	42
So'x	26	53	27
Toshloq	54	96	42
O'zbekiston	69	98	29
Farg'ona	63	103	40
Dang'ara	64	87	23
Furqat	35	53	18
Yozyovon	41	55	14



2021- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi. %da



2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 13,7 %, Qo'qon shahri - 10,5 %, Marg'ilon shahri – 8,7 %, Uchko'prik – 6,4 %, Oltiariq tumani -6,1 %, Quva tumani - 4,9 %, Rishton tumani - 4,9 %, Farg'ona tumani - 4,9 %, O'zbekiston tumani – 4,6 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2020- y. yanvar-mart	2021- y. yanvar-mart	farq. (+;-)
Jami	1436	2113	677
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	81	114	33
Sanoat	340	626	286
Qurilish	125	171	46
Savdo	620	804	184
Tashish va saqlash	45	69	24
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	53	79	26
Axborot va aloqa	38	77	39
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	33	50	17
Boshqa faoliyat turlari	101	123	22



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Farg'ona sh.	214	289	75
Qoq'on sh.	186	222	36
Marg'ilon sh.	143	184	41
Uchko'prik tumani	76	136	60
Oltiariq tumani	71	128	57
Quva tumani	79	104	25
Rishton tumani	62	104	42
Farg'ona tumani	63	103	40
O'zbekiston tumani	69	98	29
Toshloq tumani	54	96	42

2021- yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Farg'ona shahrida – 289 tani tashkil etdi.





2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 14,2 birlikni tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 22,0 birlik, Quvasoy shahrida 19,1 birlik, Qo'qon shahrida 18,8 birlik, Marg'ilon shahrida 17,3 birlik, Dang'ara tumanida 16,4 birlik, Furqat tumanida 16,0 birlik, Quva tumanida 15,5 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 8,0 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2021– yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***





2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 22,0 birlik, Quvasoy shahrida 19,1 birlik, Qo'qon shahrida 18,8 birlik, Marg'ilon shahrida 17,3 birlik, Dang'ara tumanida 16,4 birlik, Furqat tumanida 16,0 birlik, Quva tumanida 15,5 birlik, So'x tumanida esa 14,7 birlikni tashkil etdi.



**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)***

Eng yuqori ko'rsatkich

- Farg'oa shahrida - 22,0 birlik.**

O'rtacha ko'rsatkich

- Uchko'prik tumanida - 14,0 birlik.**

Eng past ko'rsatkich

- Beshariq tumanida - 8,0 birlik.**

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-mart holatiga ko'ra, %da

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **61,2** %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-martida **59,5** %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

56,1%

2019- y.

59,5%


2020- y.

61,2%

2021- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	38,0	93,0	69,5	78,2
Farg'ona sh.	12,2	94,7	46,3	54,6
Qo'qon sh.	30,7	92,9	65,3	78,0
Quvasoy sh.	8,9	79,2	84,9	73,2
Marg'ilon sh.	94,4	79,6	83,3	94,5
<i>tumanlar</i>				
Oltiariq	57,9	99,5	86,7	95,1
Qo'shtepa	35,7	83,9	88,5	31,8
Bag'dod	76,6	99,3	86,2	91,7
Bivayda	100,0	100,0	67,7	98,2
Beshariq	100,0	94,1	82,0	89,3
Quva	23,4	99,7	73,9	96,9
Uchko'prik	75,1	99,6	83,2	97,4
Rishton	35,9	99,3	77,2	67,0
So'x	100,0	97,2	89,6	29,4
Toshloq	11,4	99,8	83,8	97,7
O'zbekiston	61,4	99,8	84,6	94,3
Farg'ona	87,0	99,3	76,1	88,4
Dang'ara	100,0	98,5	85,9	95,8
Furqat	99,9	100,0	91,9	91,3
Yozyovon	100,0	84,1	84,5	83,7

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Buvayda (100,0 %),
Beshariq (100,0 %),
So'x (100,0 %),
Dang'ara (100,0 %),
Yozyovon (100,0 %) va
Furqat (99,9 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Buvayda (100,0 %),
Furqat (100,0 %),
O'zbekiston (99,8 %),
Toshloq (99,8 %),
Quva (99,7 %),
Uchko'prik (99,6) va
Oltiariq (99,3 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Furqat (91,9 %),
So'x (89,6 %),
Qo'shtepa (88,5 %),
Oltiariq (86,7 %)
Bag'dod (86,2 %) va
Dang'ara (85,9 %)
tumanlarida hamda
Quvasoy shaharda
(84,9 %).

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **45,8** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **36,7 %**ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, %da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bag'dod, Beshariq, So'x, Buvayda, Dang'ara, Furqat, Yozyovon, tumanlari (100,0 %dan) va Marg'ilon shahrida – 97,3 %ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 8,2 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi **159,5** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **80,9** %ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumanida - 100,0 %, Beshariq tumanida - 100,0 %, So'x tumanida - 100,0 %, Dang'ara tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 %, Yozyovon tumanida - 100,0 %ni tashkil etdi. Eng past ko'rstanich Qo'shtepa tumanida - 21,1 %ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **1936,6** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo‘qon shahar (289,5 mlrd. so‘m), Uchko‘prtik tumani (258,4 mlrd. so‘m), Farg‘ona tumani (168,2 mlrd. so‘m), Farg‘ona shahar (160,8 mlrd. so‘m), Marg‘ilon shahar (157,2 mlrd. so‘m) va Beshariq tumani (139,3 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi. So‘x tumanida (14,1 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 38,0 foizni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buvayda tumani (100,0 %), Beshariq tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0 %), Dang'ara tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Furqat tumani (99,9 %), Marg'ilon shahar (94,4 %), Farg'ona tumani (87,0 %), Bag'dod tumani (76,6 %), Uchko'priq tumani (75,1 %) Quvasoy shaharda (8,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3413,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **90,8** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 102,1 foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona (686,5 mlrd. so'm), Qo'qon (487,8 mlrd. so'm), Marg'ilon (292,7 mlrd. so'm) shaharlari, Qo'shtepa (211,0 mlrd. so'm), Quva (171,8 mlrd. so'm) va Uchko'prik (162,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1199,7** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,0** foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 111,4 foizni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (267,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (156,3 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (136,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (136,5 mlrd. so'm), Buvayda tumani (65,0 mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (44,9 mlrd. so'm) hamda Dang'ara (43,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **2563,3** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,5** %ini tashkil qildi 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 4,1 % oʼsish kuzatildi.



2021- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Fargʼona shahri (506,5 mlrd. soʻm), Qoʼqon shahri (288,8 mlrd.soʻm), Margʼilon shahri (221,0 mlrd. soʻm), Oltiariq (133,9 mlrd.soʻm), Uchkoʼprik (117,0 mlrd. soʻm), Buvayda (116,6 mlrd. soʻm) va Quva (106,2 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʼgʼiri keladi.




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **94,0** foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,6** foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar- mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **78,8** foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,9** foizni tashkil qildi.



2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,0** foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2,1** foizga oshishiga olib keldi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **97,3** foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,2** foizga o'sish kuzatildi.






2021- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da 1713 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 636 (37,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni joriy davrda qulay deb baholadi. 968 (56,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 109 (6,4%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.




2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,3 % (74 ta), sanoatda – 24,8 % (424 ta), qurilishda – 9,3% (160 ta) , savdoda – 36,3 % (622 ta), xizmatlar sohasida – 25,3 % (433 ta) ni tashkil etdi.



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (298 ta), Qo'qon shahri (210 ta), Marg'ilon shahri (131 ta), Oltiariq (95 ta), Uchko'prik (88 ta), Quva (87 ta), O'zbekiston (80 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 40,5 %ni, sanoatda 30,7 %ni, qurilishda 36,9 %ni va xizmatlar sohasida 38,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon sanoatda 62,5 %ni, xizmatlar savdoda 56,8 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 55,4 % ni tashkil etdi.



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni **qulay** deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 68,9%ni, qurilishda 65,6 %, savdoda 64,5%ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni **qoniqarli** deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda 44,5%ni, xizmatlat sohasida 35,6 %ni, savdoda 34,4%ni tashkil etdi.